O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bkmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bkmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari	1212
Islomov Eldor Yusupovich	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish	1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	1220
Марупова Дилфуза Давроновна	

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.....	1226
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>	
Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar.....	1231
<i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>	
Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish.....	1236
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>	
Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий.....	1239
<i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>	
Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках.....	1244
<i>Оринов Облакул Жумаевич</i>	
Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития.....	1248
<i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	
O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	1252
<i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyon Zokirjon qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1257
<i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>	
Современные методы устранения заикания у подростков.....	1260
<i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>	
O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1264
<i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>	
Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari.....	1268
<i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>	
Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri.....	1274
<i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>	
Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish.....	1277
<i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.....	1282
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	1286
<i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	1289
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi.....	1293
<i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>	
Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni.....	1296
<i>Burxonova Guyaxon Gulomovna</i>	
Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish.....	1300
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>	
Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari.....	1304
<i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari.....	1307
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts.....	1312
<i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>	
Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari.....	1315
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>	
Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati.....	1319
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari.....	1323
<i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>	



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English	1326
Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari	1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism	1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	1337
Olimova Fotima Botirovna	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida)	1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	1348
Oltiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish	1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida)	1355
Salomov Ilhom Salimovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish	1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi	1365
Sodiqova Nigora Turayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi	1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqlashning o'zaro ta'sir mexanizmlari	1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi	1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi	1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari	1380
D. A. Xodjimatrova	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati	1385
Zafar Xudaykulov	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish	1388
Yusupova Munisa	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida	1395
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов	1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	1403
Yarmatov Raxmboy Baxramovich	
Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish	1409
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	



Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1412
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri	1416
<i>Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna</i>	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1421
<i>Maxammatova Feruza Olimovna</i>	
O'zbekistonda virtual muzeylar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari	1424
<i>Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Yusupova Mohinur Ulug'bekovna</i>	
Xalqaro ta'lim tajribasi asosida o'quvchilarda tafakkur erkinligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari	1434
<i>Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna</i>	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda pedagogik taksonomiya ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1438
<i>Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna</i>	
Tibbiyot texnikumi talabalari klinik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari: konseptual yondashuvlar va ilmiy talqinlar	1443
<i>Axmedov Marifxon Mamatxanovich</i>	
Valeologik tamoyillarning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati	1448
<i>Begmatova M. T.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish	1452
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi dolzarb pedagogik muammo sifatida	1456
<i>Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich</i>	
Oilada ota-ona va bola munosabatlaridagi pedagogik-psixologik omillar	1460
<i>Exsonova Feruza Turdixojayevna</i>	
Педагогико-психологические аспекты формирования социокультурной компетентности будущих учителей средствами музейной педагогики	1464
<i>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</i>	
Serebral falaj(bsf)tashxisli bolalarda respirator-nutq mexanizmlarining buzilishi va korreksion yondashuvlar	1469
<i>Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi</i>	
Milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlar tarbiyasida rivojlanishining zamonaviy roli va ahamiyati	1473
<i>Mirzayev Dilshod Khamidovich</i>	
O'smir qizlarda deviant xulqni profilaktika qilish	1477
<i>Mo'minova Dilrabo Murodillayevna</i>	
Arab tilshunosligida ma'no, tuzilma va bayon nazariyasining shakllanishi Sakkokiy qarashlari asosida tahlil	1481
<i>Abdullayev Olimjon</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar kadrlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari	1487
<i>Yuldasheva Munisa Ibrohimovna</i>	
Xorijiy tillarni o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya	1492
<i>Yormatova Gulnoz Qayumovna</i>	
Developing Imagination and Narrative Thinking in Young Learners Through English Storytelling Activities	1497
<i>Madjitova Oyshakhon Mukhammadganiyevna, Anvarova Muslima</i>	
Effectiveness of Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students	1508
<i>Yusupova Zarrina</i>	
Modern Automotive Lexicon: Formation Processes, Semantic Fields, and Functional Usage	1511
<i>Yuldasheva Mastona Muxubillayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishda "Atrof va men" metodikasidan foydalanish	1514
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Chet tili bo'yicha A1, A2, B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar (lingvistik kompetensiya) tahlili	1519
<i>Tojiyeva Anora Baxtiyorovna</i>	



Гендерных различия прокрастинации.....	1526
Рахмонова Гузал Жамшидовна	
A System of Software that Develops the Intellectual Potential of Students in Teaching Mathematics	1529
Toxirova Malika Muzaffar qizi	
O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1535
Maxkamova Muborak Yusupovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	1543
Raximova Zilola Alimbayevna	
Ona tili darsliklari ta'limi mazmunini lingvistik ekspertiza qilish metodikasi	1547
Majidova Aziza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	1551
Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna	
Oliy texnika ta'limida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini o'qitishning innovatsion metodik asoslari	1554
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
STEAM tamoyillari asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish	1558
Umarova Muqaddasxon	
Autistik spektr buzilishi: DSM-5 va ICD-11 tasniflari, tadqiqotlar va jamiyatdagi ahamiyati.....	1562
Tuxtayeva Maxfirat	
STEAM texnologiyasi asosida xorijiy til (ingliz tili) o'rgatish.....	1566
Teshaboyeva Zumradxon	
Cultivating Social-Emotional Learning (SEL) in Classrooms.....	1569
Choriyev Ilxom Kenjayevich	
Kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari	1573
Mamatkabilov A. X.	
Sun'iy intellekt – speechace dasturi yordamida o'quvchilarning ingliz tilida talaffuz malakasini oshirish	1578
Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	1583
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
STEAM ta'limining O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari.....	1588
Abdukarimova E'zoza Fazliddin qizi, Bayjigitova Dilorom Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida jarayonlarning boshqarishning innovatsion texnologiyalari	1592
Uzaqov Nomozaali Hamdamovich	
Kimyoni o'qitish jarayonida virtual laboratoriyadan foydalanish	1596
Murodova Sitorabonu Bahodir qizi	
Raqamli platformalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning media ko'nikmalarini shakllantirish	1599
Safarov Feruz Saminjon o'g'li	
Qoraqalpoq xalq an'analarini vositasida maktab o'quvchilarini an'anaviy tarbiyalash (Bo'zatov tumani maktablari misolida).....	1603
Dosjonova Nilufar Rustam qizi	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	1607
Abira Bakhramova	
Kichik maktab yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish	1613
Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi	
Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida bir qator tarkibiy komponentlarning uyg'un rivoji.....	1617
Mirzaxojayeva Dilrabo To'liqin qizi	
O'quv mashg'ulot guruhida musoboqa oldi mashg'ulotlar tuzilishi (badminton misolida).....	1621
Ismoilova Fotima Ismoil qizi	
Alohida ajratilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish davomida ularning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish zaruriy omil ekanligi to'g'risida.....	1626
Qozoqboyeva Xanifaxon Shavkatjon qizi	

Methodological Foundations for Shaping the Creative Activity of Younger Pupils in Solving Mathematical Problems	1630
Dzhurakulova Adolat Khalmuratovna	
Jadidlar merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtirish metodini takomillashtirish	1638
Bekchanova Ozoda Otajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirish.....	1641
Alibayeva Dildora Raxmatilla qizi	
Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish.....	1644
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1647
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri.....	1650
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Emotional Burnout of Teachers as a Factor Influencing Professional Activities	1655
Kamilova Nadira Gayratovna, Abdullaeva Nelufar Karimjanovna	
Методика развития профессионально-речевых компетенций будущих специалистов	1663
Комилова Мукаррам Кобилжоновна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari	1666
Koziyeva Fazilat	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1671
Maxammatova Feruza Olimovna	
Deviant xulq-atvor shakllanishining nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili	1674
Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna	
IJF yangi qoidalarining dzyudochilar texnik arsenaliga ta'siri: 2020 va 2024-yilgi olimpiadalar qiyosiy tahlili.....	1677
A. T. Saydullayev	
Системный подход к внедрению мультилингвальных методов: разработка структурно-функциональной модели в педагогическом вузе	1681
Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна	



KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASALARIDA KADRLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Mamatkabilov A. X.

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, f.m.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: O'zbekistonda kutubxona sohasini yanada rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim tizimida "Axborot-kutubxona faoliyatining normativ-huquqiy asoslari" fanini "Axborot-kutubxona faoliyati" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'qitish maqsadga muvofiqdir. Mazkur fan maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunda kutubxona faoliyatida amal qilinayotgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning eskirgani, mazmunan o'z kuchini yo'qotgani hamda kadrlarni ishga qabul qilish jarayonida faqat soha mutaxassislariga tayanilayotgani aniqlanadi. Shu munosabat bilan axborot-kutubxona muassasalarining ustavlari, yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlariga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritish va ularni qayta tasdiqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Kalit so'zlar: o'quvchi (kitobxon), kutubxonachi, qaror, gipoteza, tadqiqot metodlari, farmon, nizom, nazariya, nazariy asos, ijtimoiy rivojlanish, yo'riqnoma, mehnat shartnomasi.

Abstract: In order to further develop the library sector in Uzbekistan, it is advisable to teach the subject "Normative and Legal Foundations of Information and Library Activity" within the higher education system for students majoring in Information and Library Science, based on the goals and objectives of the discipline. The study highlights that a number of regulatory documents currently applied in library practice are outdated in terms of validity and content. It also emphasizes that the recruitment of library personnel is carried out primarily by specialists in this field, which necessitates revising and updating institutional statutes, guidelines, and other regulatory documents in accordance with established legal procedures.

Key words: reader, librarian, decision, hypothesis, research methods, decree, regulation, theory, theoretical framework, social development, instruction, employment contract.

Аннотация: В целях дальнейшего развития библиотечной сферы в Узбекистане целесообразно преподавание дисциплины "Нормативно-правовые основы информационно-библиотечной деятельности" в системе высшего образования для студентов, обучающихся по направлению "Информационно-библиотечная деятельность", исходя из целей и задач данной дисциплины. В статье отмечается, что в современной библиотечной практике используются нормативные документы, утратившие актуальность по срокам и содержанию, а также выявляется необходимость совершенствования порядка найма библиотечных работников исключительно из числа профильных специалистов. В связи с этим обосновывается необходимость внесения изменений в уставы, инструкции и иные нормативные документы с последующим их повторным утверждением в установленном порядке.

Ключевые слова: читатель, библиотекарь, решение, гипотеза, методы исследования, постановление, указ, теория, теоретическая основа, социальное развитие, инструкция, трудовой договор.

KIRISH

Mamlakatda axborot-kutubxona muassasalari xodimlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksida belgilab qo'yilgan talablar asosida ish olib boradilar. Xodim ishga kelgan paytida yuridik hujjat, ya'ni ish beruvchi bilan xodim o'rtasida "Mehnat shartnomasi" (IV bo'lim. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar. 12-bob. Mehnat shartnomasi) imzolaniadi.

Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan ishni haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuzilib, xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning imzolari bilan mustahkamlanadi. Mehnat shartnomasi amaldagi qonunchilikdan kelib chiqqan holda, barcha zaruriy shartlar kelishilgan holda tuzilishi kelgusida ish beruvchi va xodim o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqishining oldini oladi. Xodimning lavozim majburiyatlari yakka lavozim yo'riqnomasida belgilanadi.



Shtat jadvali – doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar nomlarining soni hamda lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjatdir.

Lavozim yo'riqnomasi – korxonaning lokal hujjati bo'lib, unda asosiy vazifalar, muayyan lavozimda ishlash uchun talab etiladigan ko'nikma va vakolatlar qisqacha bayon etiladi. Xodimlarning mehnat majburiyatlari boshqa lokal hujjatlarda (ichki mehnat tartibi qoidalari, ustavlar, intizom to'g'risidagi nizomlar va boshqalar) yoki mehnat shartnomalarida batafsil yoritilmagan bo'lsa, lavozim yo'riqnomasi zarur hisoblanadi. Lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqishda xodimlar lavozimining kvalifikatsion xususiyatlari, kutubxona ustavi (nizomi) va boshqa hujjatlar asos bo'ladi.

Lavozim yo'riqnomalari ma'muriyat tomonidan kutubxonaning o'ziga xos xususiyatlarini, tashkiliy strukturasining o'ziga xosligini, ma'muriy boshqaruvi, kadrlar tarkibi, ularning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajalarini e'tiborga olgan holda tuziladi. Lavozim yo'riqnomasi loyihasi yurist bilan maslahatlashilgan, yuqori tashkilot bilan kelishilgan holda kutubxona rahbari yoki kutubxona qaramog'ida bo'lgan muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Bajaruvchi ham, muassasa rahbari ham lavozim yo'riqnomasiga qat'iy rioya qilishlari lozim.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish zarurati tug'ilgan hollarda xodimga lavozim majburiyatlaridan tashqari, biroq uning bilim va mahoratidan kelib chiqqan holda ayrim faoliyat turlarini topshirish imkoniyati rad etilmaydi. Lavozim yo'riqnomalariga qo'shimchalar kiritish yoki ularni o'zgartirish albatta asosanib berilishi, sabablarning ko'rsatilishi talab etiladi. Mehnat shartlari o'zgarishiga taalluqli barcha masalalar, jumladan, qo'shimcha majburiyatlarni kiritish, mehnat hajmini ko'paytirish (kengaytirish) va unga mos ravishda haq to'lash masalalari bo'yicha xodimlar bilan kelishilgan va ular tomonidan yozma tarzda tasdiqlangan bo'lishi shart.

Agar qaysidir masala yuzasidan bir fikrga kelish imkoni bo'lmasa, ushbu muammo mehnat munozaralari bo'yicha komissiya (hay'at) tomonidan hal etilishi mumkin. Agar kelishmovchilik bartaraf etilmasa, u holda mazkur masala sud tartibida hal etiladi.

Xodimlar mehnat intizomi talablariga rioya qilishlari shart. Ayrim hollarda ushbu talablar buzilishi mumkin. Bunday intizom buzarliliklar sezilmasdan qolmasligi lozim, chunki ularga nisbatan munosabat bildirilmasligi nafaqat intizom buzarlarga, balki ular bilan birga ishlayotgan xodimlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli qonunchilikda bunday xodimlarga nisbatan jarima sanksiyalarini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq, mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

- hayfsan;
- o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalari xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinishi hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarimani ushlab qolish ish beruvchi tomonidan ushbu Kodeksning 269- va 270-moddalari talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi;
- mehnat shartnomasini bekor qilish (ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 4- va 5-bandlari).

Ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda, intizom to'g'risidagi ustavlar yoki nizomlarda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnati kodeksining 313-moddasida intizomiy jazo choralarini qo'llash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra intizomiy jazo choralarini ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) qo'llaydi (Kodeksning 127-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlari). Ish beruvchi xodimdan intizomiy jazo chorasi qo'llanilishidan oldin yozma tushuntirish talab qilishi shart. Xodimning yozma tushuntirish berishdan bosh tortishi intizomiy jazo chorasi qo'llanilishiga monelik qilmaydi va bu holat guvohlar ishtirokida dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Xodimga intizomiy jazo chorasi qo'llash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu buyruq qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida, xodim ishdan bo'lmagan vaqt hisobga olinmasdan, jazoni qo'llash sabablari ko'rsatilgan holda imzo qo'ydirib e'lon qilinadi. Buyruq bilan tanishtirilmagan xodim intizomiy jazosi bo'lmagan deb hisoblanadi.

Mehnati kodeksining 314-moddasida intizomiy jazoni qo'llash muddatlari belgilangan. Intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlangandan so'ng darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi. Intizomiy jazo qilmish sodir etilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay, moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yoki auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa ikki yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin.

Intizomiy jazo, agar aybdor xodim bir yil davomida mehnat intizomini buzmagani va o'zini vijdonli xodim sifatida ko'rsata olgan bo'lsa, muddatidan oldin olib tashlanishi mumkin. Ushbu jazo xodim tomonidan yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Mehnati kodeksining 269-moddasiga muvofiq, xodimning roziligidan qat'i nazar, quyidagi hollarda ish haqidan ushlab qolinadi:

- soliqlar va yig'imlar; sud hujjatlari va boshqa vakolatli organlar hujjatlarini ijro etish;
- bo'naklarni qaytarish;



- hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to'langan summalarni qaytarib olish;
- xodim tomonidan yetkazilgan zarar miqdori o'rtacha oylik ish haqidan oshmagan hollarda;
- mehnat shartnomasi bekor qilinganda ta'tilning ishlab berilmagan kunlari uchun va qonunchilikda belgilangan boshqa holatlarda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarida kadrlar siyosatini takomillashtirish masalalari Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida tizimli ravishda yoritilgan. Xususan, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" asarida davlat va jamiyat taraqqiyotida inson kapitali, xodimlarning kasbiy mas'uliyati va huquqiy madaniyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" hamda "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik" nomli asarlarda esa tashkilotlarda mehnat intizomi, rahbar va xodimlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, shaxsiy javobgarlik tamoyillari kadrlar siyosatining asosiy elementi sifatida talqin etiladi. Ushbu g'oyalar kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar boshqaruvining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosati raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Chowdhury va Chowdhury tahriri ostida chop etilgan ilmiy ishlarda raqamli muhit sharoitida axborot mutaxassislarining yangi kompetensiyalari, ularning huquqiy maqomi va kasbiy moslashuvi masalalari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda kutubxonachilik faoliyatini samarali tashkil etishda normativ-huquqiy hujjatlarning zamon talablariga mos bo'lishi muhim omil sifatida baholanadi.

Ermolova va Verbitskaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli davrda kutubxona va axborot fanidagi innovatsiyalar Rossiya tajribasi asosida tahlil qilinib, kadrlar siyosatida uzluksiz kasbiy rivojlanish, bilimlarni boshqarish va huquqiy tartibga solishning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Dalkir va Liebowitz asarlarida esa kutubxonalarda bilimlarni boshqarish tizimi kadrlar siyosatining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Mazkur ilmiy qarashlar kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini huquqiy jihatdan takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini o'rganish jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda amaliy tajribalar asosiy axborot manbalari sifatida tanlandi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, sohaga oid qonunlar, Prezident asarlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning kutubxonashunoslik va axborot faoliyati bo'yicha ilmiy ishlari orqali yig'ildi. Tadqiqot davomida huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy yondashuv, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar kadrlar siyosatining amaldagi huquqiy mexanizmlari, ularning kutubxona-axborot muassasalaridagi qo'llanilishi hamda mavjud muammolarni aniqlash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy umumlashtirish va tasniflash usullari orqali turli manbalarda berilgan yondashuvlar solishtirilib, asosiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot metodologiyasi kadrlar siyosatini huquqiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilangan qoidalarning buzilishi yoki yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatning davom etishiga to'sqinlik qiluvchi holatlarning yuzaga kelishi xodimning aybli harakatlari yoki harakatsizligi bilan sodir etilmasa, ushbu mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 168-moddasi 4- va 5-bandlariga muvofiq bekor qilinganda, bunda ish haqidan chegirib qolish amalga oshirilmaydi.

Xodimga ortiqcha to'langan ish haqi (shu jumladan, mehnat to'g'risidagi qonunchilik yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar noto'g'ri qo'llanilganda) undan undirilishi mumkin emas, bundan quyidagi hollargina mustasno:

- hisoblashdagi xatolik;
- agar yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organ tomonidan xodimning mehnat normalarini bajarmaganlikdagi aybi e'tirof etilgan bo'lsa;
- xodimning sud tomonidan belgilangan g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) sababli xodimga ortiqcha ish haqi to'langan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, soliq solinmaydigan to'lovlardan ushlab qolishlar amalga oshirilishi mumkin emas.



Kodeksning 270-moddasiga asosan, har bir to'lov chog'ida ish haqidan ushlab qolingan mablag'larning umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emas. Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan cheklov aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikka, shuningdek, axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan xodimning ish haqini ushlab qolishga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bunday hollarda jazodan va aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikdan ushlab qolish miqdori xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining yetmish foizidan oshishi mumkin emas.

Jamoa shartnomasi – korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soladigan me'yoriy hujjatdir. Ish beruvchi bilan jamoa shartnomasini tuzish zarurligi to'g'risidagi qarorni qabul qilish huquqiga kasaba uyushmasi (o'z vakillik organi orqali), xodimlar vakolat bergan boshqa vakillik organi yoki bevosita mehnat jamoasi umumiy yig'ilishi (konferensiyasi) ega.

Jamoa shartnomasi korxonalarda, ularning yuridik shaxs huquqi berilgan tarkibiy bo'linmalarida bir tomondan – kasaba uyushmalari va xodimlar tomonidan yuqoridagi vakillik organlari orqali, ikkinchi tomondan – bevosita ish beruvchi yoki u vakolat bergan vakillar o'rtasida tuziladi. Uning mazmuni va tuzilishini taraflar belgilaydi. Jamoa shartnomasiga ish beruvchi va xodimlarning quyidagi masalalar bo'yicha o'zaro majburiyatlari kiritilishi mumkin:

- mehnatga haq to'lash shakli, tizimi va miqdori, mukofotlar, nafaqalar, kompensatsiyalar, qo'shimcha to'lovlar;
- narxlar o'zgarib borishiga, inflyatsiya darajasiga hamda jamoa shartnomasida belgilangan ko'rsatkichlar bajarilishiga qarab mehnatga haq to'lashni tartibga solish mexanizmi;
- xodimlarni ish bilan ta'minlash, qayta o'qitish, ishdan bo'shatish shartlari; ish vaqti va dam olish vaqti, mehnat ta'tillarining muddati;
- xodimlar, jumladan, ayollar va 18 yoshga to'lmagan shaxslarning mehnat sharoiti va mehnat muhofazasini yaxshilash, ekologik jihatdan xavfsizlikni ta'minlash;
- korxona va idoraga qarashli turar joyni xususiyashtirish vaqtida xodimlarning manfaatlariga rioya qilish;
- ishlab turib o'qiydigan xodimlarning imtiyozlari;
- ixtiyoriy va majburiy tarzda tibbiy hamda ijtimoiy sug'urta va boshqa masalalar.

Jamoa shartnomasi loyihasi korxona bo'linmalarida xodimlar tomonidan muhokama qilinib, fikr va takliflari hisobga olingan holda takomilga yetkaziladi va mehnat jamoasi umumiy yig'ilishi (konferensiyasi)da muhokamaga qo'yiladi. Jamoa shartnomasi umumiy yig'ilish (konferensiya)da ma'qullangandan keyin taraflarning vakillari tomonidan uch kun ichida imzolanadi va imzo chekilgan vaqtdan e'tiboran yoki jamoa shartnomasida ko'rsatilgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda taraflar belgilagan muddat davomida amal qiladi.

Mehnat kodeksida jamoa shartnomasini majburiy tartibda tuzish to'g'risidagi talab belgilanmagan. Bunday shartnoma tuzilmaganligi uchun tashkilot javobgar bo'lmaydi. Shu bilan birga, ham ish beruvchi, ham mehnat jamoasi bir-birining oldida jamoa shartnomasini tuzish yuzasidan muzokaralar yuritish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega. Shartnomani tuzish bo'yicha takliflarni rad etib bo'lmaydi.

Jamoa shartnomasi yo'qligi uchun hech kim tashkilot va uning rahbariyatini javobgarlikka torta olmaydi. Ammo agar xodimlar ma'muriyatga shartnoma tuzish uchun yozma taklif yo'llagan bo'lsa, ish beruvchi muzokaralarda ishtirok etishi shart (Mehnat kodeksi 31-modda 5-qism). Ushbu majburiyatdan bo'yin tovlaganlik uchun Davlat mehnat inspeksiyasi tashkilot rahbariga bazaviy hisoblash miqdorining 5–10 baravari miqdorida ma'muriy jarima solishi mumkin.

Jamoa shartnomasi qoidalar kasaba uyushmasi a'zolidan, ish rejimi va boshqa shart-sharoitlardan qat'i nazar, barcha xodimlarga nisbatan tatbiq qilinadi. Shu jumladan, o'rindoshlar, uyda ishlovchilar, muddati mehnat shartnomasini tuzgan xodimlar va boshqalar. Jamoa shartnomasi kuchga kirgandan keyin ishga qabul qilingan shaxslarga ham tatbiq etiladi (Mehnat kodeksi 42-modda).

Korxona nomi o'zgargan, korxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham jamoa shartnomasi o'z kuchini saqlab qoladi. Jamoa shartnomasini haqiqiy emas deb tan olish mumkin emas, chunki mehnat qonunchiligida jamoa shartnomasi (bitim)ning bekorligi tushunchasi mavjud emas.

Agar jamoa shartnomasida xodimlarning huquq va kafolatlarini mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganiga nisbatan yomonlashtiradigan qoidalar mavjud bo'lsa, ular haqiqiy emas deb tan olinadi va qo'llanilmaydi.

Jamoa shartnomalari orqali xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash, mehnatini muhofaza qilish, bandlikka ko'maklashish, mehnatga haq to'lash, daromadlar va turmush darajasini oshirish, ijtimoiy kafolatlarini kengaytirish, mehnatkashlar va ularning oila a'zolari ma'naviyatini yuksaltirish, sog'lomlashtirish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish kabi yo'nalishlarda ishlar



amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, jamoa shartnomalariga ishlayotgan pensionerlar, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat sohasidagi huquqlari himoyasini kuchaytirishga oid bo'limlar kiritilgan.

Xodimlar uchun jamoa shartnomasining foydali jihatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki ish beruvchi jamoa shartnomasida qonun hujjatlarida to'liq tartibga solinmagan masalalarni qayd etadi hamda xodimlar uchun qo'shimcha to'lovlar va imtiyozlarning kafolatlarini belgilaydi. Jamoa shartnomasiga korxonaning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilganiga nisbatan ko'proq imtiyozli mehnat sharoitlari va ijtimoiy-iqtisodiy shartlar (qo'shimcha ta'tillar, pensiyaga ustamalar, transport va xizmat safari xarajatlari uchun kompensatsiyalar, xodimlar va ularning bolalarini maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida bepul yoki qisman haq to'lanadigan tarzda ovqatlantirish va boshqa imtiyozlar) kiritilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini samarali amalga oshirish, avvalo, mustahkam normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi va ularning amaliyotda to'g'ri qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir. Mehnat kodeksi, jamoa shartnomalari, lavozim yo'riqnomalari hamda boshqa lokal hujjatlar xodimlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berishi, mehnat munosabatlarida barqarorlikni ta'minlashi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, ayrim kutubxona muassasalarida normativ hujjatlarning eskirgani yoki zamonaviy talablar bilan to'liq uyg'unlashmagani kadrlar boshqaruvida muammolarni yuzaga keltirayotganini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini takomillashtirish maqsadida lokal me'yoriy hujjatlarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish va yangilab borish, jamoa shartnomalari-ning ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, rahbar va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tizimli choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – T., 2023. – 296 b.
2. Mirziyoyev, Shavkat. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. Mirziyoyev, Shavkat. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
4. Mirziyoyev, Shavkat. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak (o'zbek va rus tillarida). – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev, Shavkat. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (o'zbek va rus tillarida). – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 56 b.
6. Chowdhury, G. G. va Chowdhury, S. (tahr.). Transforming Digital Worlds: 13-Xalqaro konferensiya, iConference 2018, Sheffield, Buyuk Britaniya, 2018-yil 25–28-mart. – Springer, 2019.
7. Ermolova, T. va Verbitskaya, L. Raqamli asrda kutubxona va axborot fanidagi innovatsiyalar: Rossiya tajribasi // The Journal of Academic Librarianship, 2017, 43(3), 218–223.
8. Dalkir, K. va Liebowitz, J. (tahr.). Kutubxonalarda bilimlarni boshqarish: tushunchalar, vositalar va yondashuvlar. – Chandos Publishing, 2016.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.